

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BOBOXO'JAYEVA FOTIMA KAXRAMONOVNA

**BANKLAR FAOLIYATIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN MARKETING
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11-Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UDK: 339.138:004:338.436.33(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economic sciences**

Boboxo'jayeva Fotima Qaxramonovna

Banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan
foydalanishni takomillashtirish.....

3

Бобохужаева Фотима Кахрамоновна

Разработка клиентоориентированной маркетинговой стратегии в
банковской сфере.

29

Bobokhujaeva Fotima Kakhramonovna

Developing a customer-oriented marketing strategy in banking
activities.....

57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works

63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BOBOXO'JAYEVA FOTIMA KAXRAMONOVNA

**BANKLAR FAOLIYATIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN MARKETING
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11-Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTORFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3067 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Qoriyeva Yoqutxon Karimovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Ne'matov Innatilla Ubaydullayevich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" "____" kuni soat "____" dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining bozorda barqaror raqobat pozitsiyasini egallashi, avvalo, ularning strategik boshqaruv qobiliyati, moslashuvchan marketing siyosatini shakllantirishi va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishiga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda bank xizmatlari bozorida kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar, raqamli iqtisodiyotni shakllanishi, raqobat muhitining keskinlashuvi hamda innovatsion texnologik yechimlarning jadal rivojlanishi mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarining roli va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Jahon bank xizmatlari bozorida ham raqamli iqtisodiyotni shakllanishi xamda FINtech texnologiyalarini bank xizmatlari bozorida jadallik bilan kirib kelishi banklar amaliyotini tubdan qayta ko'rib chiqish va mijozlarga moslashuvchan raqamli bank xizmatlarini shakllantirishiga turtki bermoqda. Jahon banki ma'lumotlarga ko'ra 2025-yilga kelib, raqamli banking kanallari global miqyosda barcha bank operatsiyalarining 90 foizdan ortig'ini tashkil etgan, 2025-yilda AQSHda taxminan 216.8 million foydalanuvchi raqamli banking xizmatlaridan foydalanish holatlari kuzatilgan.¹ Chakana mijozlarning onlayn bank xizmatlariga ommaviy tarzda o'tishi, bu xizmatlardan foydalanuvchilar ulushining qisqa fursatda 85 foizga yetgani, banklardan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda tamoman yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qildi.

O'zbekistonda ham bank tizimini liberallashtirish, raqobatbardosh bank xizmatlarini rivojlantirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmonida "moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish"² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarining samarali ijrosi tijorat banklarining barqaror faoliyatini ta'minlash, ularning likvidligi va bozordagi mavqeyini mustahkamlash mijoz ehtiyojlarini aniqlash, segmentlash va maqsadli guruhlariga mos marketing strategiyalarini ishlab chiqish bilan uzviy

¹ https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex/report?utm_source=chatgpt.com

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmon. <https://lex.uz/docs/4811025>

bog'liqdir. Shunga ko'ra bank bozorida mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, ularning bankka oid qadriyatini baholash, mijoz tajribasini tahlil qilish va aniq maqsadli marketing strategiyalarini belgilash, mijozlarning ehtiyoj va intilishlarini to'liq qondirish, ular bilan barqaror munosabatlarni shakllantirish va daromadlilikni uzoq muddat saqlashga xizmat qiluvchi mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish muhim tadqiqotlar yo'nalishidir.

O'zbekiston Respublikasining 11.11.2019-yildagi O'RQ-582-son "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", 05.11.2019-yildagi O'RQ-580-son "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida», 12.08.2024-yildagi PF-109-son "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 27.11.2025-yildagi PQ-359-son "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 14.07.2025-yilda ro'yxatdan o'tgan 3030-10 -son "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda o'zaro munosabatlar marketing strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ayrim nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan J.J.Lamben, F.Kotler, M.Porter, Ye.Dixtel, Ye.P.Golubkov, Mahmud, J.A.Samiday, D.I.Barkan, A.V.Buzdalini, T.Amblerlarning³ ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

³ Ламбен Ж.Ж.. «Стратегический маркетинг» – СПб.: «Наука», 2006 г.; Ф.Котлер, Ф.Армстронг, Г.Сондерс, Д.Вонг. «Основы маркетинга» – СПб.: Вильямс, 2008 г.; Майкл Е. Портер. «Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов». Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс. 2005. – 454с.; Е.Дихтель, Хершген Х. «Практический маркетинг», учеб. пособие / пер. с нем. Макарова А.М.: под ред. Минко И.С. – М.: Высш. шк. 1995. –225с.; Голубков Е.П.. «Маркетинговые исследования: теория, методология и практика» – М.: Финпресс, 2008 г.; Mahmud, J.Al Samyda, Ibrahim, Alnawas A.M. and Rodina A. Yousif, 2010. «The Impact of Marketing Innovation on Creating a Sustainable Competitive Advantage», The Case of Private Commercial Banks in Jordan. Asian Journal of Marketing, 4: 113-130.; Баркан Д.И.. «Маркетинг для всех: Беседы для начинающих». – J.L.: Редакционно-издательский центр «Культ-информ-пресс» совместно с социально-коммерческой фирмой «Человек», 1991. – 256с.; А.В.Буздалин. «Надежность банка: От формализации к оценке», 2012. – 192с.; Амблер Т. «Практический маркетинг» /Пер. с англ. под

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Yu.M. Vayver, S.A. Kosterinoy, O.I. Lavrushina, A.M. Tavasiyeva, Yu.N. singari olimlar⁴ tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida bank marketingi borasidagi ilmiy nazariy qarashlar tizimi shakllantirish, tijorat banklarida mijozlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va raqamli bank xizmatlari bozorda raqobatli ustunliklarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar berilgan.

Respublikamiz bank xizmatlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasini shakllantirish masalalari Sh.Ergashxodjayeva, M.S.Qosimova, M.Yusupov, U.U.Sharifxodjayev, Z.A.Xakimov, O.A.Ortiqov, Z.B.Mustafoev, D.N.Allayorova, B.M.Mirzamaydinov, G.Bekmurodova, N.A.Karabayev, M.B.Mo'minova, M.M.Abduraxmanova va boshqa ko'plab olim va mutaxassislar⁵ ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Sanab o'tilgan olimlarning iqtisodiyot va marketing fanlariga qo'shgan salmoqli hissasiga qaramay, ularning tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot va mijozlarning xulq-atvorini yuqori darajada o'zgarish sharoitida tijorat banklari faoliyatida mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar salmog'i kam. Xususan, tijorat banklarining raqamli muhitda raqobatbardoshligini oshirish va ularning samarali faoliyat yuritishida raqamli texnologiyalardan foydalanish, mijozlarga yangi bank xizmatlarini taqdim etishda innovatsion

общей ред. Ю. Н. Каптуревского. – СПб: Издательство «Питер», 1999. – 400 с.;

⁴ Вайвер Ю.М. Проблемы стратегического управления системой взаимодействия с корпоративными клиентами в коммерческом банке / Ю.М. Вайвер // Вестник Академии. – 2014. – №3 (40). – С. 39-42.; Костерина, Т.М. Кредитный менеджмент в банке: учебно-методический комплекс / Т.М. Костерина. – М.: Евразийский открытый ин-т, 2012. – 270 с.; Банковское дело / коллектив авторов под ред. О.И. Лаврушина, Н.И. Валенцевой. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Банковское кредитование: учебник / А. М. Тавасиев, Т. Ю. Мазурина, В. П. Бычков. – 2-е изд. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – 366 с.;

⁵ Эргашходжаева Ш., Қосимова М. С., Юсупов М. Marketing. – Т.: ТДИУ, 2018. – 232 б.; У.У.Шарифходжаев, Хакимов З.А.. Интерактив ва рақамли маркетинг. Уқув қўлланма. ТДИУ, "Иқтисодиёт" 2019 й. 274 б.; Ортиқов О.А. «Банклараро рақобат шароитида банк хизматлари ва уларни такомиллаштириш йўллари». Иқтисод фанлари номзоди диссертация автореферати – Т.:2009 й.; З.Б.Мустафоев. «Банк маркетинги – молия бозори шаклланиши ва ривожланишининг асоси». Иқтисод фанлари номзоди диссертация автореферати – Т.:1998 й.; Аллаёрова Д.Н. «Эффективность маркетинга в деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан». Иқтисод фанлари номзоди диссертация автореферати – Т.:2009 й.; Мирзамайдинов Б.М.. «Банк хизматида маркетинг самарадорлиги (Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият Миллий банк мисолида)». Иқтисод фанлари номзоди диссертация автореферати – Т.:2008 й.; Бекмуродова Г. Тижорат банклари рақобатбардошлигини оширишнинг инновацион маркетинг концепциясини такомиллаштириш. 08.00.11 – Маркетинг. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент. ТДИУ. 2018 йил. 9-бет; Карабаев Н.А. Тижорат банклари фаолиятини рейтинг тизими асосида баҳолашни такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент. ТДИУ. 2018 йил. 9-бет.; Мўминова М.Б. Тижорат банклари актив операцияларини бошқариш стратегиясини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент. ТДИУ. 2018 йил. 9-бет; Абдурахманова М.М.. Банк хизматлари бозорида маркетинг фаолиятини ривожлантириш. 08.00.13 – "Менежмент ва маркетинг". Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент. ТДИУ. 2010 йил. 14-бет;

yondashuvlarni qo'llash, bank mahsulotlari va xizmatlarini ko'rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, mijozlar ehtiyoj va intilishlariga mos yangi xizmat turlarini shakllantirishga qaratilgan marketing strategiyasini ishlab chiqishning kompleks yondashuvlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu munosabat bilan, tijorat banklari raqobatbardoshligini mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqish orqali oshirish yo'nalishlarini o'rganish zamonaviy bank tizimi rivoji uchun dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy bank marketingi nazariyalari mohiyati va strategik marketing konsepsiyalarini o'rganish;

tijorat banklari faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqishning xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston tijorat banklari amaliyotda foydalanish;

tijorat banklarida mijozga yo'naltirilgan marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarishning mavjud holatini tahlil qilish;

tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlar holatini baholashga yondashuvlarni ishlab chiqish;

tijorat banklari faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish;

tijorat banklarida ichki marketing faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini asoslash;

banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston respublikasi tijorat banklarining marketing faoliyati tanlangan

Tadqiqotning predmeti bo'lib, banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik baholash, segmentlash, raqobatdagi ustunlik darajasini aniqlash, kuzatuv-so'rov, omilli tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "bank marketingi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni tijorat banklarida mijoz markazlashgan strategik boshqaruv tizimi sifatida, ularning bank mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari, kutilmalari hamda xulq-atvor xususiyatlarini tizimli o'rganish, shakllantirish va individuallashtirilgan qiymat takliflari orqali samarali qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz boshqaruv jarayonlari majmui sifatida takomillashtirilgan;

Tizimli tenglamalarni modellashtirish (PLS-SEM) usulida tijorat banklarida munosabatlar marketingini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblangan mijoz qoniqishi ($wCSI=0,207$), qiymat yaratish ($wCVC=0,197$), shikoyatlarni boshqarish ($wCH =0,217$), sadoqlik ($wCL =0,200$), saqlab qolish ($wCR =0,218$) hamda bank uchun qoshilgan qiymati ($wCLV=0,218$) ko'rsatkichlarning yuqori ijobiy va statistik ahamiyatli ta'siri asosida mijozlarga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilish taklifi asoslangan;

"Mikrokreditbank" ATB mijozlari segmentlarining xulq-atvor va ehtiyojlaridagi dinamik o'zgarishlarga tezkor moslashuvchan, brendingga yo'naltirilgan va ma'lumotlarga asoslangan raqamli marketing kanallarida faollikni ta'minlashga qaratilgan integral marketing strategiyalari yo'l xaritasi ishlab chiqilgan;

Tijorat banklarining mijozlar bilan samarali munosabatlarga asoslangan marketing faoliyatini tashkil etuvchi bo'limlari tarkibini uslubiy va metodologik jihatdan yangi yo'nalishda "Ijtimoiy yo'naltirilgan marketing modeli" tizimi asosida shakllantirishda CRM tizimi, ko'p kanalli marketing, ma'lumotlar tahlili, ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlar marketingi dastaklaridan foydalanish asoslangan;

"Mikrokreditbank" ATBning mijozlarga yo'naltirilgan marketing omillari ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida bank daromadlari o'zgarishlarining 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tijorat banklarida xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari tasnifi ishlab chiqilgan;

Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish holatini baholash indikatorlari taklif etilgan;

"Mikrokreditbank" ATBning brendingga asoslangan segmentatsiya

mexanizmi taklif etilgan;

“Mikrokreditbank” ATBning takomillashtirilgan mijozlarga yo’naltirilgan marketing faoliyatini boshqarishning yangi tizimi “Ijtimoiy yo’naltirilgan marketing modeli” tizimi sxemasi taklif etilgan;

“Mikrokreditbank” ATB uchun zamonaviy ijtimoiy yo’naltirilgan va raqamli marketing strategiyalarini joriy etishning 2025-2027-yillar uchun yo’l xarita ishlab chiqilgan;

tijorat banklarining mijozlar bilan munosabatlar asoslangan marketing bo’limi faoliyatini baholashning eng muhim samaradorlik ko’rsatkichlari indikatorlarning etalon qiymatlari belgilab berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo’llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tahlil uchun zarur bo’lgan nazariy ma’lumotlarning xalqaro va milliy darajadagi rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy-nazariy taklif va amaliy tavsiyalarning tijorat banklari amaliyotida sinovdan o’tkazilganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan mijozga yo’naltirilgan marketing tahlil usullari va strategik modellarning tijorat banklarining amaliy marketing faoliyatiga joriy etilib, ular tomonidan maqbul deb topilganligi tadqiqot natijalarining yuqori ishonchliligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik yondashuvlar mamlakatimiz tijorat banklarining bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga yo’naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish va ularning marketing faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlariga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantiradi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan modellar, rekomendatsiyalar va uslubiy yondashuvlar O’zbekistonda bank xizmatlari bozorini samarali tashkil etish, mijoz segmentlarini to’g’ri identifikatsiya qilish, interaktiv va raqamli marketing vositalaridan foydalanish hamda bank mahsulotlari va xizmatlari taklifini optimallashtirishda metodologik baza sifatida xizmat qiladi.

Taklif etilgan tijorat banklarida mijozlarga yo’naltirilgan marketing strategiyalari va dasturlari hamda axborot bazalarini shakllantirishda xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari bank xizmatlari bozorida marketing faoliyati takomillashtirishning konseptual asoslarini yaratishda, sohaning qisqa va uzoq muddatlarga mo’ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Ilmiy-nazariy tavsiyalardan “Bank xizmatlari marketingi”, “Innovatsion marketing”, “Interaktiv va raqamli marketing”, “Bank ishi”, “Bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish” va boshqa fanlarni o’qitishda hamda turli o’quv kurslarini tashkil etishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "bank marketingi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini bank mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari, kutilmalari hamda xulq-atvor xususiyatlarini tizimli o'rganish, shakllantirish va individuallashtirilgan qiymat takliflari orqali samarali qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz boshqaruv jarayonlari majmui sifatida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Xizmatlar marketingi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli hamda 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda jalb etish, saqlab qolish, rivojlantirish va mijoz qiymatini oshirish bankning raqobatbardoshligi, uzoq muddatli daromadlilik hamda ijtimoiy mas'uliyatini uyg'un ta'minlashga qaratilgan uzluksiz boshqaruv jarayonlari majmuini sifatida takomillashtirilgan tushunchasi bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

Tizimli tenglamalarni modellashtirish (PLS-SEM) usulida tijorat banklarida munosabatlar marketingini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblangan mijoz qoniqishi ($w_{CSI}=0,207$), qiymat yaratish ($w_{CVC}=0,197$), shikoyatlarni boshqarish ($w_{CH} =0,217$), sadoqlik ($w_{CL} =0,200$), saqlab qolish ($w_{CR} =0,218$) hamda bank uchun mijoz qiymati ($w_{CLV}=0,218$) ko'rsatkichlarning yuqori ijobiy va statistik ahamiyatli ta'siri asosida mijozlarga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilish taklifi "Mikrokreditbank" ATB faoliyatida joriy etilgan. ("Mikrokreditbank" ATBning 2026-yil 30-yanvardagi 03-14/2432-son ma'lumotnomasi). Natijada bankda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirilib, mijozlarni saqlab qolish va xizmatlardan qoniqish darajasini barqaror o'sishiga erishilgan.

Taklif etilgan tijorat banklarida mijozlar segmentlarining xulq-atvor va ehtiyojlaridagi dinamik o'zgarishlarga tezkor moslashuvchan, brendingga yo'naltirilgan va ma'lumotlarga asoslangan raqamli marketing kanallarida faollikni ta'minlashga qaratilgan integral marketing strategiyalari yo'l xaritasi "Mikrokreditbank" ATB faoliyatida foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2026-yil 30-yanvardagi 03-14/2432-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida "Mikrokreditbank" ATBning raqamli kanallar samaradorligi sezilarli oshirishga erishilgan. Jumladan, raqamli kanallar orqali yangi mijozlarni jalb qilish darajasi 42 foizdan 60 foizga oshgan, mijoz jalb qilish xarajatlari 2024-yilga nisbatan 2025-yilda 7,8 foizga kamaygan

hamda bank daromadlarining barqaror o'sishi va raqobatbardoshlikning mustahkamlanishini ta'minlangan.

Tijorat banklarining mijozlar bilan samarali munosabatlarga asoslangan marketing faoliyatini tashkil etuvchi bo'limlari tarkibini uslubiy va metodologik jihatdan yangi yo'nalishda "Ijtimoiy yo'naltirilgan marketing modeli" tizimi asosida shakllantirishda CRM tizimi, ko'p kanalli marketing, ma'lumotlar tahlili, ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlar marketingi dastaklaridan foydalanish taklifi "Mikrokreditbank" ATB faoliyatida joriy etilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2026-yil 30-yanvardagi 03-14/2432-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida ijtimoiy yo'naltirilgan marketing ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan hamda bankning ijtimoiy yo'naltirilgan muammolarga moliyaviy resurslarni jalb qilish darajasi 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 8,9 foizga oshirishga erishilgan. Shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan faol marketing siyosati orqali bank raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar qoniqish darajasini yaxshilash va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishga erishilgan.

Mijozlarga yo'naltirilgan marketing omillari ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida bank daromadlari o'zgarishlarining 2030-yilga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan "Mikrokreditbank" ATB faoliyatida foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2026-yil 30-yanvardagi 03-14/2432-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Mikrokreditbank" ATB va uning hududiy filiallarida kredit portfelini, olinadigan komission daromadlarni rejalashtirish va mijozlarga tabaqalashtirilgan xolda taqdim qilish, mobil ilova foydalanuvchilar sonini oshirish va raqamli tranzaksiyalar ulushi yanada ko'paytirish bo'yicha strategik maqsadlarni belgilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola (shundan 5 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to'plamlarida 4 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi

va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy bank marketingi nazariyalari mohiyati va strategik marketing konsepsiyalari o'rganilgan. Banklar faoliyatida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari keltirilgan. Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqishning xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Tijorat banklarida marketing strategiyasini ishlab chiqish zarurati, avvalo, bankning maqsadli yo'nalishlarini aniq belgilash, yuqori raqobatli moliya bozorida mijoz ehtiyojlarini to'liq va uzluksiz qondirish, shuningdek, sof raqobat sharoitida barqaror daromad yaratish qobiliyatini uzoq muddat davomida saqlab qolish zaruratidan kelib chiqadi. Bunday strategiya bankning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashi, mahsulot portfelini optimallashtirishi va mijozlar moyilligini oshirishi lozim.

Marketing strategiyalari odatda an'anaviy 4P - mahsulot (product), narx (price), siljitish (promotion), joy (place) aralashmasiga asoslangan holda shakllantiriladi. Biroq zamonaviy yondashuvlarda “bank - mijoz uchun” prinsipining ustuvorligi marketingning “C” konsepsiyasiga - xarajat (cost), mijoz ehtiyoj va xoxishlari (customer needs and wants), qulaylik (convenience), kommunikasiya (communication) asosida strategiya ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bu yondashuv ko'pincha partizanacha yoki innovatsion strategik usul sifatida qaraladi, chunki u bozordagi raqobat afzalligini mijozning individual qadriyatlariga moslash orqali shakllantiradi. Bank marketingida mijoz bilan munosabat sifatini tashkil etuvchi elementlar - ishonch, qoniqish va majburiyat - zamonaviy tadqiqotlarda keng o'rganiladigan kategoriya sifatida qaraladi.

Tijorat banklarining mijozlar bilan ishlash tizimi, ilmiy adabiyotlarda qabul qilingan yondashuvga muvofiq, to'rtta strategik vazifani qamrab oladi: mijozni jalb etish, uni ushlab turish, mijoz qiymatini rivojlantirish (o'stirish) va bankka qiymat qo'shmaydigan segmentlardan bosqichma-bosqich voz kechish. Bu vazifalar iyerarxiyasida mijozlarni jalb etish birinchi bosqich sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, keyingi barcha jarayonlarning samaradorligi aynan ushbu bosqichdagi qarorlar va usullar sifatiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilarning aksariyati bank marketingini bozorni o'rganish, reklama faoliyatini tashkil etish, xizmatlarni targ'ib qilish, sotishni rag'batlantirish hamda sotishdan keyingi nazorat jarayonlarini qamrab oluvchi faoliyatlar majmui an'anaviy marketing kompleksidagi (4P) prinsiplar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Bank marketingiga ta'rif berishda ushbu faoliyatning mohiyati, ya'ni uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari, bozor mexanizmlari bilan o'zaro aloqasi va mijoz-xizmat ko'rsatuvchi munosabatlaridagi strategik roldan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu asosda bank marketingini quyidagicha izohlash mumkin.

Nazariy tadqiqotlardan kelib chiqqanda bank marketingi tushunchasining iqtisodiy mazmuni - tijorat banklarida mijoz markazlashgan strategik boshqaruv tizimi sifatida, ularning bank mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari, kutilmalari hamda xulq-atvor xususiyatlarini tizimli o'rganish, shakllantirish va individuallashtirilgan qiymat takliflari orqali samarali qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz boshqaruv jarayonlari majmui sifatida qaralishi lozim.

Taklif etilgan yondashuvga ko'ra marketingning markaziy kategoriyalari sifatida mijoz qiymati, uzoq muddatli munosabatlar, mijozlar xulq-atvorining iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq xususiyatlari hamda strategik yo'naltirilganlik prinsiplari belgilangan.

Tijorat banklarining mijozga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuvi xulq-atvor iqtisodiyoti va mijoz tajribasiga asoslangan konsepsiyalaridir. Mijozning qaror qabul qilishi faqat ratsional mezonlarga emas, balki xavfni idrok etish, hissiy tajriba va xizmat sifati signallariga asoslanadi. Bank mijozlari yuqori xatar bilan bog'liq qarorlar qabul qilgani sababli, servis sifati, muloqot madaniyati, tezkorlik, shaffoflik va shaxsiylashtirish, CRMning metodologik asoslariga tayanadi.

Tijorat banklarining mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqishning uslubiy yondashuvlari mijoz ehtiyojlari tahlil qilish, bank xizmatlari mijozlarga moslashtirish, mijozlarga qiymat taklifi modelini yaratish, xizmat sifatini monitoring qilish va mijozning davriy qiymatini oshiruvchi motivatsion mexanizmlarni joriy etishga asoslanishi lozim (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasining uslubiy yondashuvlari⁶

Yondashuvlar nomi	Mazmuni	Metodologik asos	Amaliy instrumentlar	Bank marketing strategiyasidagi roli
1. Mijoz ehtiyojlarini tahlil qilish	Mijozlarning funksional, emotsional, moliyaviy va	Munosabatlar marketingi, xulq-atvor iqtisodiyoti,	So'rovnoma, fokus-guruh, Mijoz yo'li xaritasi, RFM, CLV, Big Data tahlili	Maqsadli segmentlarni aniqlash, shaxsiylashtirish

⁶ Muallif ishlanmasi.

Yondashuvlar nomi	Mazmuni	Metodologik asos	Amaliy instrumentlar	Bank marketing strategiyasidagi roli
	servisga oid ehtiyojlarini doimiy ravishda aniqlash va ulardagi o'zgarish dinamikasini kuzatish	Mijozni chuqur anglash		darajasini oshirish va tovar siyosatni yo'naltirish
2. Bank xizmatlarini mijozga moslashtirish (Customization)	Mijoz profili, risk profili va talab strukturasi mos mahsulot va xizmat paketlarini shakllantirish	CRM paradigmasi, Qiymatni hamkorlikda yaratish, Resurslarga asoslangan yondashuv (RBV)	Individual xizmat paketlari, Differensial tariflar, Mijozning holatiga qarab narx belgilash	Mijoz uchun qiymatni oshirish va raqobatda farqlanishni ta'minlash
3. Mijozlar uchun qiymat taklifi modelini yaratish (Value Proposition Model)	Bankning har bir segment uchun qanday unikal qiymat yarata olishi va raqobatchilardan ustunligi aniqlash	Mijoz qiymati nazariyasi, Raqobat strategiyasi	Qiymat xaritasi, Mijoz qiymati taklifi (CVP), manfaatlar–xarajatlar tahlili	Mijozga yo'naltirilgan brend pozitsiyasini shakllantirish va strategiyani o'zagini aniqlash
4. Xizmat sifatini monitoring qilish	Mijoz tajribasi, xizmat tezligi, xavfsizlik darajasi va servis sifatini doimiy baholash	SERVQUAL, GAP-model, Xizmatga asoslangan marketing	Mijoz qoniqish indeksi. Moyillik indeksi	Mijoz qoniqishini oshirish, yo'qotish koeffitsiyentini kamaytirish
5. Mijozning davriy qiymatini oshiruvchi motivatsion mexanizmlarni qo'llash	Mijozning bank bilan uzoq muddatli munosabatini rag'batlantirish va qarz–depozit siklidagi foydasiga ta'sir qilish	Mijoz davriligi qiymati (CLV), mijozlar moyilligi nazariyasi, xulq-atvor nazariyasi	Moyillik dasturlari, bonuslar, Sotuvni rag'batlantirish	Mijoz moyilligini mustahkamlash, CLV ni oshirish, barqaror daromad oqimini shakllantirish

Xorijiy mamlakatlar tijorat banklarining mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari raqamli transformatsiya, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar, ekotizim yondashuvi va barqaror rivojlanish prinsiplariga asoslanadi. Jumladan, AQSH va Buyuk Britaniya banklari mijozlarga yo'naltirilgan marketingni analitikaga asoslangan strategik yondashuvlar, Germaniyada korporativ va chakana mijozlar uchun alohida marketing ekotizimini shakllantirgan, Fransiya "Beyond Banking" konsepsiyasi asosida an'anaviy bank xizmatlaridan tashqari mijozlarning turmush tarziga mos xizmatlarni taklif qiladi, Singapur banklari o'zini "moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi texnologiya kompaniyasi" sifatida rivojlantiradi, Yaponiyaning mijozlar bilan an'anaviy ishonch va innovatsiyani uyg'unlashtirgan yondashuv orqali samarali munosabatlarga asoslangan marketing strategiyalaridan foydalanadi. O'zbekiston tijorat banklari uchun ushbu tajribalarni milliy xususiyatlarga moslashtirib joriy qilish bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, mijozlar qoniqishini

oshirish va xalqaro reytinglarda raqobatbardosh pozitsiyalarga erishish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari faoliyatida mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat banklarida mijozga yo‘naltirilgan marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarishning mavjud holati tahlili keltirilgan. “Mikrokreditbank” ATBning mijozga yo‘naltirilgan marketing faoliyati baholangan. Tijorat banklari faoliyatida mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash orqali aniqlangan muammolarga yechimlar taklif qilingan.

O‘zbekiston banklarida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan rivojlanish strategiyalari “bank mijoz uchun prinsipi” asosiga qurilgan marketingning “C” konsepsiyalarini joriy etish asosiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Bank marketingida iste‘molchi, qiymat, qulaylik va muloqot prinsiplari ustuvor ahamiyat kasb etib, bank xizmatlarini mijoz ehtiyojlariga moslashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va uzoq muddatli doimiy munosabatlarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Bu jarayonda banklar tomonidan mijozlar ehtiyojlarini aniqlash, shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilish, raqamli kanallardan foydalanish orqali sifatni ta‘minlash hamda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston bank tizimining institutsional rivojlanishi mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, 2019-2024-yillar davomida Respublikada kredit tashkilotlari soni 121 tadan 229 taga yetdi, ya‘ni 1,89 barobar o‘ydi. Bu o‘sish asosan nobank kredit tashkilotlari hisobiga ro‘y berdi (2,1-marta o‘sish), bu esa moliyaviy xizmatlarning diversifikatsiyasi va mijozlarning turli ehtiyojlariga moslashganligidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida kredit tashkilotlari va ularning infratuzilmasi dinamikasi⁷

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Kredit tashkilotlari, jami	121	147	160	177	205	229
2.	Tijorat banklari	29	30	32	33	35	36
3.	Nobank kredit tashkilotlari	92	117	128	144	170	193
4.	Bank filiallari	829	850	861	865	1 250	1 720
5.	Bank xizmatlari markazlari	980	1 050	1 222	1 350	1 520	1 720
6.	24/7 shoxobchalar	-	902	1 452	2 100	3 200	4 447

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2019-2025-yillar mobaynida jami depozitlar hajmi 70,0 trln so‘mdan 308,7 trln so‘mga yetgan, ya‘ni 4,4 barobar oshgan. Ayniqsa, 2022-2023-yillardagi o‘sish 36,1 foizdan va 38,8 foizgacha kuzatilgan. Kredit portfelining tuzilishidagi o‘zgarishlar banklarning chakana segmentga yo‘naltirilganligining ortishini

⁷ O‘zbekiston respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari (2018-2024-y.)

ko'rsatadi. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning ulushi 2019-yildagi 14,6 foizdan 2025-yilda 29,4 foizga yetdi, ya'ni 2 barobarga oshgan (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit portfelining tuzilishi va dinamikasi (yil boshiga, mlrd. so'm)⁸

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar						
		2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	Jami kreditlar	167391	211581	276975	326386	390049	471406	533121
2.	Jismoniy shaxslarga	24427	35200	52800	75600	98500	128400	156800
3.	Yuridik shaxslarga	142964	176381	224175	250786	291549	343006	376321
4.	Jismoniy shaxslar ulushi, %	14,6	16,6	19,1	23,2	25,3	27,2	29,4

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunga kelib 33 ta tijorat bankini uz ichiga oluvchi zamonaviy moliyaviy infratuzilmaga aylangan. Bank tizimi tarkibida davlat ishtirokidagi banklar, xususiy banklar va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, "Mikrokreditbank" ATB o'ziga xos o'rinni egallab, mikromoliyalashtirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash sohasida yetakchi banklardan biriga aylangan.

"Mikrokreditbank" ATB O'zbekiston bank sektorida aktivlar hajmi bo'yicha 2024-yilgi holat bo'yicha 6 o'rinni egallaydi. 2024-yil boshiga bank aktivlari 23,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu mamlakat bank tizimi jami aktivlarining taxminan 4-5 foiziga to'g'ri keladi. "Mikrokreditbank" ATBning marketing strategiyasi bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bank iste'molchilar segmenti bilan ishlashda "pastdan yuqoriga" yondashuvida - ya'ni asosiy maqsadli auditoriya sifatida yirik korporativ mijozlar emas, balki keng aholi qatlamlari, kichik tadbirkorlar va mikro biznes subyektlari belgilangan. Shuningdek, bank ijtimoiy yo'naltirilgan marketing konsepsiyalari, bank hududiy marketing strategiyasi, mahsulot sementatsiyasi, raqamli marketing, hamkorlik marketingni (co-marketing) qo'llab quvvatlaydi va xalqaro hamkorlik orqali marketing imkoniyatlarini kengaytirish ahamiyat qaratadi.

"Mikrokreditbank" ATBning mijozlarga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi 2021-2024-yillar davomida sezilarli darajada kengayib, xizmat nuqtalari soni 517 tadan 1056 taga yetgan, ya'ni 2 barobardan ortiq o'sgan (4-jadval). O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish markazlari (24/7) sonining 120 tadan 261 taga oshgan. Bu ko'rsatkich bankning raqamlashtirish va avtomatlashtirish yo'nalishidagi izchil siyosatini aks ettiradi.

4-jadval

"Mikrokreditbank" mijozlar bazasi va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi dinamikasi⁹

№	Ko'rsatkichlar nomi	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024-yilda 2023-yilga nisbatan o'sish, %
---	---------------------	---------	---------	---------	---------	--

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari (2018-2024-y.)

⁹ "Mikrokreditbank" ATB 2022-2024-yillar biznes rejaları asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1.	Filiallar soni, dona	60	71	60	60	100,0
2.	Bank xizmati markazlari, dona	87	100	98	135	155,2
3.	O'z-o'ziga xizmat markazlari (24/7)	120	200	261	261	217,5
4.	Bankomatlar soni, dona	250	400	550	600	240,0
5.	Jami xizmat nuqtalari	517	771	969	1056	204,3

Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bank marketingining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u mijoz ehtiyojini o'rganish, mijozlar bilan o'zaro aloqalarni tizimli yuritish, shuningdek mijozning bank bilan uzoq muddatli hamkorligini ta'minlashga qaratilgan.

Munosabatlar marketing strategiyalari mijozlar qoniqishini oshirishdagi asosiy yo'nalish sifatida quyidagi gipotezani kiritishiga asos bo'ladi:

H1-munosabatlar marketingini rivojlantirish mijoz qoniqishi darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H2-munosabatlar marketingi mijoz qiymatini yaratish jarayonini kuchaytiradi;


H3-munosabatlar marketingi shikoyatlarni boshqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H4: Munosabatlar marketingi mijoz moyilligini oshiradi.

H5-munosabatlar marketingi mijozlarni saqlab qolish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H6 - munosabatlar marketingi bank uchun mijoz qiymatini oshiradi.

Gipotezalarni asoslash uchun "Mikrokreditbank" ATBning mijozlar bilan ishlash tizimi va mijozlarning bank xizmatlaridan foydalanish tajribasini baholash bo'yicha anketa shakllantirilgan. Mijozlar tajribasini aks ettiruvchi jami 450 nafar respondentning javoblari namunalar tizimli tenglamalarni modellashtirish (PLS-SEM) metodologiyasi talablariga muvofiq bo'lib, modeldagi latent konstruktlar va indikatorlar soniga nisbatan yetarli statistik ahamiyatlilikni ta'minlagan. Anketa so'rovnomasi jami 30 ta indikatoridan iborat bo'lib, ular olti ta asosiy latent o'zgaruvchi, ya'ni mijoz qoniqishi (CSI), iste'mol qiymatini yaratish (CVC), shikoyatlarni boshqarish samaradorligi (CH), mijoz moyilligi (CL), mijozlarni saqlab qolish (CR) hamda bank uchun mijoz qiymati (CLV)ni o'lchashga qaratilgan. 1-rasmda munosabatlar marketingi holatini tahlil qilishning SEM modellashtirish sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Tijorat banklarida munosabatlar marketingini shakllantiruvchi bog‘liq omillar bo‘yicha SEM modeli¹⁰

“Mikrokreditbank” ATB mijozlarining anketa javoblari asosida olingan natijalar munosabatlar marketingni shakllantirishda barcha asosiy omillar mijoz qoniqishi, mijoz uchun qiymat yaratish, shikoyatlarni boshqarish samaradorligi, mijoz moyilligi, mijozlarni saqlab qolish hamda bank uchun mijoz qiymati statistik jihatdan ahamiyatli hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi.

Barcha yashirin omillar bo‘yicha ta‘sir vaznlarining ijobiy va yuqori ahamiyatli ekani munosabatlar marketingi bankda kompleks tarzda shakllanayotganini tasdiqlaydi. Barcha komponentlar ijobiy va statistik ahamiyatli shakllantirmoqda ($p < 0.001$). Eng katta hissaga ega komponentlar sifatida CR, CH, CLV (vaznlar bir-biriga yaqin) olindi. “Mikrokreditbank” ATBda munosabatlar marketingi darajasi, birinchi navbatda, mijozni saqlab qolish, muammolarni hal qilish sifati, hamda bank uchun mijoz qiymati orqali kuchliroq shakllanishini anglatadi (5-jadval).

5-jadval

Tartibli Formative RM bo‘yicha Bootstrapping natijalari: Outer weights¹¹

RM komponenti	Weight (w)	SE	t	p
CSI → RM	0.207	0.015	13.46	<0.001
CVC → RM	0.197	0.015	13.39	<0.001
CH → RM	0.217	0.014	16.00	<0.001
CL → RM	0.200	0.015	12.89	<0.001
CR → RM	0.218	0.016	13.74	<0.001
CLV → RM	0.218	0.015	14.09	<0.001

Tijorat banklarida shikoyatlarni boshqarish samaradorligi, mijozlarni

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

¹¹ Muallif tomonidan SmartPLS dasturi asosida olingan natijalar.

saqlab qolish va bank uchun mijoz qiymati munosabatlar marketing darajasini belgilashda nisbatan kuchliroq ahamiyatga ega ekanini kuzatildi. Natijalar “Mikrokreditbank” ATBda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishda muammolarni tezkor hal qilish, mijozlarni yo‘qotmaslik va ularning iqtisodiy qiymatini oshirish muhim strategik yo‘nalishlar ekanini anglatadi.

Modellashtirish natijalari barcha qo‘yilgan gipotezalarni asosli ekanligini tasdiqlaydi. Olib borilgan marketing tadqiqotlari natijalari munosabatlar marketingi amaliyotining samarasi mijoz qoniqishi, mijoz uchun qiymat yaratish, shikoyatlarni boshqarish, mijoz moyilligi, mijozlarni saqlab qolish hamda bank uchun mijoz qiymati orqali namoyon bo‘ladi (6-jadval).

6-jadval

Tijorat banklarida munosabatlar marketingini shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlash bo‘yicha gipotezalarni tekshirish natijalari¹²

Gipoteza	Operatsion test (SEM)	Natija
H1: RM mijoz qoniqishi	CSI → RM - ahamiyatli	Qo‘llab-quvvatlandi
H2: RM mijoz qiymati	CVC → RM - ahamiyatli	Qo‘llab-quvvatlandi
H3: RM shikoyat boshqarish	CH → RM - ahamiyatli	Qo‘llab-quvvatlandi
H4: RM moyillik	CL → RM - ahamiyatli	Qo‘llab-quvvatlandi
H5: RM amallar	CR → RM - ahamiyatli	Qo‘llab-quvvatlandi
H6: RM bank uchun qiymat	CLV → RM - ahamiyatli	Qo‘llab-quvvatlandi

Empirik tahlil natijalari “Mikrokreditbank” ATBda munosabatlar marketingi darajasi mijozga yo‘naltirilgan natijaviy ko‘rsatkichlar integratsiyasi asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Xususan, mijoz qoniqishi, mijoz uchun qiymat yaratish, shikoyatlarni boshqarish samaradorligi, mijoz moyilligi, mijozlarni saqlab qolish hamda bank uchun mijoz qiymati munosabatlar marketingining muhim tarkibiy komponentlari sifatida statistik jihatdan ahamiyatli ekanini aniqlandi. Ilgari surilgan gipotezalar to‘liq tasdiqlanib, “Mikrokreditbank” ATBda mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini rivojlantirish bank faoliyati samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslab berdi.

Dissertatsiyaning “Tijorat banklari mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari” deb nomlangan uchinchi bobda tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarga asoslangan marketing boshqaruvi samaradorligini oshirish yo‘llari aniqlangan. Banklar faoliyatida mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanishining istiqbolli yo‘nalishlari taklif etilgan.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va iste‘molchilarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlar banklarni an‘anaviy marketing yondashuvlaridan voz kechib, raqamli kanallarga asoslangan, shaxsiylashtirilgan va ma‘lumotlarga tayangan marketing strategiyalarini joriy etishga majbur qilmoqda. Bunday sharoitda mijozlar bilan o‘zaro aloqani mustahkamlash hamda raqamli platformalar orqali qiymat taklifini samarali yetkazib berish ustuvor

¹² Muallif tomonidan SmartPLS dasturi asosida olingan natijalar.

yo'nalishga aylangan. Raqamli bank xizmatlari. "Mikrokreditbank" ATBning raqamli marketing faoliyatini kompleks baholash uchun ochiq va ishonchli axborot manbalaridan foydalanish maqsadga quyidagi marketing kommunikatsiya kanallari tanlangan: rasmiy veb-sayti (mkbank.uz), bankning "Mavrid" mobil ilovasi, Telegram, Instagram, Facebook va boshqa raqamli platformalari. Axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar bankning raqamli marketing faoliyatini kompleks baholashga imkoniyat yaratib berib, quyidagi mezonlar asosida baholangan: funktsionallik holati, UX/UI darajasi, kontent marketing holati.

Xalqaro marketing amaliyotida marketing faoliyatining samaradorligini baholashda mijozning bank uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymati (CLV), yangi mijozni jalb qilish xarajatlari (CAC), mijozni saqlab qolish darajasi (CR) kabi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Shu asosda, tijorat banklarida marketing strategiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quyidagi integrallashgan ko'rsatkichdan foydalanish taklif etiladi:

$$MES = CLV \times CR / CAC \quad (2.1)$$

bu yerda:

MES – marketing strategiyasining samaradorlik ko'rsatkichi;

CLV – mijozning bank uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymati;

CR – mijozni saqlab qolish darajasi;

CAC – yangi mijozni jalb qilish xarajatlari.

Tadqiqot doirasida bank mijozlari uchta asosiy maqsadli segment ajratilib, har bir segment uchun alohida raqamli marketing strategiyalari ishlab chiqilgan. "Mikrokreditbank" ATBning mijozlari sementatsiyasiga xos bo'lgan raqamli marketing strategiyalari aniqlangan, jumladan yoshlar segmenti (Z avlod, 18–25 yosh) uchun: gamifikatsiya, qisqa (Shorts) video kontentlar, influencer marketing, mukofotli dasturlaridan foydalanish; yosh kasb-korlar segmenti (Y avlod, 26–40 yosh) uchun: shaxsiylashtirilgan takliflar, moliyaviy maslahat, premium xizmatlar, sun'iy intellekt (AI) va CRM tizimlariga asoslangan tavsiyalar; mikro va kichik biznes subyektlari uchun kontent marketing veb-sayt orqali biznes yuritish, webinar va onlayn tadbirlar orqali bank va biznes mijozlar o'rtasidagi interaktivlik kuchaytirish va boshqalar.

7-jadval

"Mikrokreditbank" ATBning mijozlari sementatsiyasi va raqamli marketing strategiyalari¹³


Segment	Yoshi	Asosiy ehtiyoj	Raqamli kanal	Marketing strategiyasi
Yoshlar (Z avlod)	18-25	Birinchi kredit, karta, tez to'lovlar	Instagram, TikTok, Telegram, Mavrid	Gamifikatsiya, Reels/Shorts video, ta'sir o'tkazuvchi shaxs (influencer) marketing, tavsiya dasturi
Yosh kasb-korlar (Y avlod)	26-40	Kredit, depozit, ipoteka, investitsiya	Telegram, Mavrid, Email, LinkedIn	Shaxsiylashtirilgan takliflar, moliyaviy maslahat, premium xizmatlar
O'rta-yoshlilar (X avlod)	41-55	Omonat, farzand ta'limi, pensiya	Telegram, SMS, Call-markaz, Mavrid	Ishonchlilik, shaxsiy menejer, oddiy interfeys, telefon yordami

¹³ Muallif ishlanmasi.

Pensionerlar	55+	Pensiya olish, omonat, to'lovlar	SMS, Call-markaz, Filial	Soddalashtirilgan xizmatlar, shaxsiy yordam, katta shrift, ovozli yordam
Mikro tadbirkorlar	25-50	Aylanma mablag', POS, hisob-kitob	Telegram, Mavrid, WhatsApp Business	Biznes maslahatlar, case-study, sektorga oid kontent, networking
Kichik biznes	30-55	Kredit liniya, lizing, xalqaro operatsiyalar	Email, LinkedIn, Shaxsiy menejer, Veb-sayt	B2B marketing, webinarlar, ekspert kontenti, case-study
Oilaviy tadbirkorlar	25-45	Imtiyozli kredit, start-up moliya	Telegram, Mavrid, Mahalla tarmog'i	Muvaffaqiyat hikoyalari, video darsliklar, mentor dasturi, jamoa marketing
Ayollar tadbirkorlar	25-50	Hamroh kredit, biznes ta'lim	Instagram, Telegram,	Rag'batlantiruvchi (ilhomlantiruvchi) kontent, ayollar muvaffaqiyati, maxsus takliflar

“Mikrokreditbank” ATBda amaldagi marketing tizimi markazlashgan boshqaruv modeliga asoslangan bo‘lib, u funksional bo‘linish prinsipida tashkil etilgan. Mazkur model baronlarda marketing faoliyatining strategik va raqamli komponentlari yetarli darajada integratsiyalashmagan. Xususan, marketing faoliyatida CRM tizimining to‘liq joriy etilmaganligi mijozlar haqidagi ma‘lumotlarning markazlashgan bazasini shakllantirish, ularni chuqur tahlil qilish hamda shaxsiylashtirilgan marketing qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Mazkur tizimli muammolarni bartaraf etish va bank faoliyatini mijozlarga yo‘naltirilgan zamonaviy marketing modeli asosida qayta tashkil etish maqsadida, CRM va ma‘lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmi joriy etilishi taklif etiladi. Mazkur tizim marketing, IT, savdo va xizmat ko‘rsatish bo‘linmalarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan. Tijorat banklarida bunday yondashuvdan foydalanish ko‘pkanallik yondashuvga asoslanib, shaxsiylashtirilgan va samaradorligi o‘lchanadigan marketing tizimini joriy etish uchun zarur tashkiliy va texnologik asos yaratadi.

2-rasmda taklif etilgan takomillashtirilgan mijozlarga yo‘naltirilgan marketing faoliyatini boshqarish sxema “Mikrokreditbank” ATBning marketing boshqaruvini strategik darajaga olib chiqish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda mijozlar bilan uzoq muddatli va barqaror munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.



2-rasm. "Mikrokreditbank" ATBning "Ijtimoiy yo'naltirilgan marketing modeli"ni shakllantirishda CRMga asoslangan tizim sxemasi¹⁴

Taklif etilayotgan tizim bankning beshta asosiy ustunga tayangan raqamli marketing faoliyatini kompleks va tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. "Mikrokreditbank" ATBning mijozlar bilan munosabatlarga asoslangan marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarishga bo'lgan yangi tizimni samaradorligi bir qator mezonlar asosida baholanishi lozim. Bunda marketing bo'limi faoliyatini baholash uchun 8-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

8-jadval

Tijorat banklarining mijozlar bilan munosabatlar asoslangan marketing bo'limi faoliyatini baholash¹⁵

KPI guruhi	Ko'rsatkichlar nomi	Matematik ifoda (formula)	O'zgaruvchilar mazmuni	Maqsadli etalon qiymatlar
Mijozlarni jalb qilish	Yangi mijozlar o'sishi	$G = \frac{N_t - N_{t-1}}{N_{t-1}} \times 100\%$	N_t – joriy davrdagi mijozlar soni; N_{t-1} – oldingi davrdagi mijozlar soni	$\geq 15\%$ yiliga
	Lid konversiya darajasi	$CR = \frac{L_c}{L} \times 100\%$	L_c – mijozga aylangan lidlar; L – jami lidlar	$\geq 25\%$
	Mijoz jalb qilish qiymati (CAC)	$CAC = \frac{MC}{N_{new}}$	MC – marketing xarajatlari; N_{new} – yangi mijozlar soni	$\leq 50\ 000$ so'm
Mijozlarni saqlash	Mijozni saqlab qolish darajasi	$R = \frac{N_c - N_{new}}{N_s} \times 100\%$	N_c – davr oxiridagi mijozlar; N_{new} – yangi mijozlar; N_s – davr boshidagi mijozlar	$\geq 85\%$
	Mijozlar tavsiya qilish ko'rsatkichi (NPS)	$NPS = P - D$	P – tavsiya qiluvchilar (%); D – tanqidchilar (%)	≥ 50 ball
	Mijozning davriy qiymati (LTV)	$LTV = ARPU \times T$	ARPU – o'rtacha daromad; T – mijozni saqlash davri	$LTV / CAC \geq 3:1$
Raqamli kanallar	Mobil ilovalardan foydalanish faolligi (MAU)	$MAU_{rate} = \frac{MAU}{N_{total}} \times 100\%$	MAU – oylik faol foydalanuvchilar; N_{total} – jami mijozlar	$\geq 60\%$
	Raqamli tranzaksiyalar ulushi	$DTR = \frac{T_d}{T_{total}} \times 100\%$	T_d – raqamli tranzaksiyalar; T_{total} – jami tranzaksiyalar	$\geq 75\%$

Taklif etilayotgan zamonaviy marketing yo'nalishlarini joriy etish natijasida "Mikrokreditbank" ATB bir qator iqtisodiy natijalarga erishishi mumkin. 9-jadvalda mijozlar bilan munosabatlarga asoslangan raqamli marketing boshqaruvini yo'lga qo'yish orqali bankning 2027-yilgacha bo'lgan strategik maqsadlari belgilab berilgan.

9-jadval

Marketing takomillashtirish chora-tadbirlarining kutilayotgan

¹⁴ Muallif tomonidan xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

iqtisodiy natijalari¹⁶

№	Ko'rsatkichlar nomi	2024	2025	2026	2027
		-y.	-y.	-y.*	-y.*
1.	Mijozlar soni (mln. nafar)	2,81	3,23	3,72	4,28
2.	Kreditlar portfeli (trln. so'm)	6,43	7,72	9,26	11,11
3.	Mobil ilova foydalanuvchilari (mln.)	1,40	1,94	2,60	3,42
4.	NPS indeksi	35	42	50	58
5.	Marketing ROI, %	180	220	270	320
6.	Cross-sell darajasi, %	15	20	27	35

Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash maqsadida ekonometrik prognozlash yondashuvi qo'llanilgan. Tadqiqot metodologiyasi vaqt qatorlari va regressiya tahlilining integratsiyalashgan modeliga asoslanib, bank daromadlari bilan marketing faoliyatini ifodalovchi asosiy omillar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni aniqlashga qaratildi.

Tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar tijorat banklarining daromadlariga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi gipotezalar kiritiladi:

H1: X_1 (mijozlar soni) oshsa, bank daromadlari (Y) oshadi;

H2: X_2 (kredit portfeli) oshsa, bank daromadlari (Y) oshadi;

H3: X_3 (komission daromad) oshsa, bank daromadlari (Y) oshadi;

H4: X_4 (mobil foydalanuvchilar) oshsa, bank daromadlari (Y) oshadi;

H5: X_5 (raqamli ulush) oshsa, bank daromadlari (Y) oshadi.

Tadqiqot uchun 2020–2025-yillarni qamrab oluvchi choraklik statistik ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Prognozlash ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda mustaqil o'zgaruvchilarning 2026–2030-yillarning IV choragigacha bo'lgan prognoz qiymatlari aniqlandi. Bunda trend komponentini hisobga oluvchi eksponensial tekislash (Holt modeli) qo'llanildi. Ikkinchi bosqichda bank daromadlarini prognozlash uchun regressiya va vaqt qatori elementlarini birlashtiruvchi ARIMAX modeli qo'llanildi. Mazkur model mustaqil o'zgaruvchilarning bevosita ta'sirini baholash bilan birga, daromadlar qatoridagi avtokorrelyatsiyani ham inobatga oladi.

ARIMAX modelining umumiy matematik ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_t = \alpha + \sum_{i=1}^k \beta_i X_{it} + \sum_{p=1}^P \phi_p Y_{t-p} + \sum_{q=1}^Q \theta_q \varepsilon_{t-q} + \varepsilon_t \quad (3.6)$$

bu yerda:

Y_t - t-chorakdagi bank daromadi;

X_{it} - ekzogen marketing omillari (mijozlar soni, kredit portfeli va h.k.);

¹⁶ Muallif tomonidan xalqaro tajriba va bank ma'lumotlari asosida prognoz qilingan

ϕ_p - avtoregressiya koeffitsiyentlari;

θ_q - o'rtacha koeffitsiyentlari;

ε_t - tasodifiy xato.

Prognozda xatolar komponentining matematik kutilmasi 0 deb qabul qilinadi. $[\varepsilon_t] = 0$ deb olingani uchun nuqtaviy prognoz qiymatlari quyidagicha:

$$\hat{Y}_{t+h} = (-0.0139) + (-0.0745) \hat{X}_{1,t+h} + (36.0396) \hat{X}_{2,t+h} + (2.3310) \hat{X}_{3,t+h} + (0.0512) \hat{X}_{4,t+h} + (-0.3550) \hat{X}_{5,t+h}$$

Tuzilgan matematik modellar quyidagilarni aniqlashga yordam bergan:

$\beta_2 = 36,04$ kredit portfeli 1 trln so'mga ohsa, boshqa omillar o'zgarmas deb qaralganda, daromad o'rtacha 36,04 mlrd so'mga oshadi.

$\beta_3 = 2,33$: komission daromad 1 mlrd so'mga ohsa, jami daromad o'rtacha 2,331 mlrd so'mga oshadi.

$\beta_3 = 2,33$: mobil foydalanuvchilarning 1000 taga oshirish jami daromad o'rtacha 51,2 mln so'mga oshadi.

β_1 va β_5 ushbu taglamada manfiy chiqqan va bu amalda multikollinearlik/trendlarning o'zaro bog'liqligi bilan izohlanishi mumkin.

10-jadvalda "Mikrokreditbank" ATBning 2026–2030-yillar IV choragigacha bo'lgan davr uchun jami daromadlari choraklik kesimda prognoz natijalari keltirilgan. Prognoz ARIMAX/SARIMAX modeli asosida, faqat tanlangan mijozlarga yo'naltirilgan marketing omillari hisobga olingan holda amalga oshirilgan bo'lib, natijalar 95 foizlik ishonch oralig'i bilan amalga oshirilgan.

10-jadval

Mijozlarga yo'naltirilgan marketing omillari asosida "Mikrokreditbank» ATB jami daromadlarining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan choraklik prognozi¹⁷

Yillar	Choraklar	Jami daromadlar prognozi (mlrd so'm)	Ishonch oralig'ining quyi chegarasi (95%)	Ishonch oralig'ining yuqori chegarasi (95%)
2026	Q1	1835,57	1828,97	1842,18
	Q2	1975,70	1969,10	1982,31
	Q3	2115,84	2109,23	2122,44
	Q4	2255,97	2249,37	2262,57
2027	Q1	2396,10	2389,50	2402,71
	Q2	2536,24	2529,63	2542,84
	Q3	2676,37	2669,77	2682,97
	Q4	2816,51	2809,90	2823,11
2028	Q1	2956,64	2950,04	2963,24
	Q2	3096,77	3090,17	3103,38
	Q3	3236,91	3230,30	3243,51
	Q4	3377,04	3370,44	3383,64
2029	Q1	3517,17	3510,57	3523,78
	Q2	3657,31	3650,70	3663,91

¹⁷ Muallif tomonidan XLSTAT dasturi yordamida ishlab chiqildi.

	Q3	3797,44	3790,84	3804,04
	Q4	3937,57	3930,97	3944,18
2030	Q1	4077,71	4071,10	4084,31
	Q2	4217,84	4211,24	4224,44
	Q3	4357,97	4351,37	4364,58
	Q4	4498,11	4491,50	4504,71

“Mikrokreditbank” ATB bankning jami daromadlari 2026-yil I choragida 1 835,6 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2030-yil IV choragiga kelib 4 498,1 mlrd soʻmga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu natija prognoz davrida bank daromadlarining qariyb 2,45 barobar oshishini anglatadi. Oʻsish trayektoriyasi deyarli chiziqli va barqaror boʻlib, chorakdan chorakka izchil ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu holat bankda mijozlarga yoʻnaltirilgan marketing strategiyalarining tizimli va uzluksiz joriy etilayotganini koʻrsatadi.

Prognoz natijalari 95 foizlik ishonch oraligʻining yuqori va quyi chegaralari prognoz davri davomida nisbatan tor diapazonda saqlanib qolganini koʻrsatadi. Masalan, 2026-yil I choragida ishonch oraligʻi taxminan 6,6 mlrd soʻmni tashkil etsa, 2030-yil IV choragiga kelib bu koʻrsatkich 6,7 mlrd soʻm atrofida saqlanib qolmoqda.

2030-yil IV choragiga kelib prognoz qilingan 4,5 trln soʻmga yaqin jami daromad “Mikrokreditbank” ATB uchun uzoq muddatli strategik oʻsish ssenariysini ifodalaydi. Ushbu natija bankda mijozlarga yoʻnaltirilgan marketing strategiyalarining nafaqat operatsion, balki moliyaviy samaradorligini ham tasdiqlaydi. Ayniqsa, kredit va komission yoʻnalishlar orqali daromad bazasining kengayishi bankning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Olingan tadqiqotlardan maʼlum boʻladiki, uzoq muddatli istiqbolda banklar uchun ijtimoiy yoʻnaltirilgan va mijozlarga yoʻnaltirilgan marketing modellarini uygʻunlashtirish, yaʼni moliyaviy inklyuzivlik, raqamli xizmatlar va tijorat maqsadlarini muvozanatda rivojlantirish strategik ustuvor yoʻnalish sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

Banklar faoliyatida mijozlarga yoʻnaltirilgan marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

1. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida “bank marketingi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni anʼanaviy tarzda uni sotuv yoki reklama faoliyati sifatida talqin qilish doirasidan chiqarilib, bank mijozlarining ehtiyojlari, kutilmalari va xulq-atvor xususiyatlarini tizimli oʻrganish, shakllantirish hamda individuallashtirilgan qiymat takliflari orqali samarali qondirishga yoʻnaltirilgan uzluksiz strategik boshqaruv jarayonlari majmui sifatida nazariy-uslubiy jihatdan takomillashtirildi. Ushbu yondashuv bank marketingini qisqa muddatli tijoriy maqsadlarga emas, balki uzoq muddatli mijoz qiymatini yaratishga qaratilgan integral

tizim sifatida asoslash imkonini berdi.

2. Takomillashtirilgan nazariy-uslubiy yondashuv asosida bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni jalb etish, saqlab qolish, rivojlantirish hamda mijoz qiymatini oshirishga qaratilgan uzluksiz boshqaruv jarayonlari sifatida talqin qilish orqali bank marketingini o'qitishda mazmunan yangi ilmiy paradigma shakllantirildi. Mazkur yondashuvning oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan "Xizmatlar marketingi" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda qo'llanilishi natijasida talabalarning zamonaviy bank marketingi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish imkoni yaratildi.

3. Tijorat banklarida munosabatlar marketingini shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida tizimli tenglamalarni modellashtirish (PLS-SEM) usulida olib borilgan empirik tahlillar natijasida mijoz qoniqishi, qiymat yaratish, shikoyatlarni boshqarish, moyillik, mijozlarni saqlab qolish hamda bank uchun mijoz qiymati ko'rsatkichlarining yuqori ijobiy va statistik ahamiyatli ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ushbu natijalar mijozlarga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilishning ishonchli ilmiy asosini shakllantirdi.

4. Olingan empirik natijalar asosida ishlab chiqilgan mijozlarga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilish bo'yicha takliflarni "Mikrokreditbank" ATB faoliyatiga joriy etish orqali bankda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirildi hamda mijozlarni saqlab qolish va xizmatlardan qoniqish darajasining barqaror o'sishiga erishildi. Bu esa taklif etilgan yondashuvlarning amaliy samaradorligini tasdiqladi.

5. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini baholash indikatorlari tizimi tijorat banklarida marketing qarorlarining natijaviyligini muntazam monitoring qilish, strategik xatolarni erta aniqlash hamda resurslar taqsimotini optimallashtirish imkonini berdi. Mazkur indikatorlar mijoz qiymatini maksimallashtirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etdi.

6. Mijozlar segmentatsiyasini brendingga asoslangan yondashuv orqali takomillashtirish banklarga mijozlarni faqat moliyaviy yoki demografik ko'rsatkichlar asosida emas, balki ularning qadriyatlarini, munosabatlari va bank brendiga bo'lgan ishonchi asosida guruhlash imkonini berdi. Bu esa bank brendini strategik aktiv sifatida boshqarish, mijozlar moyillikini mustahkamlash va raqobat muhitida barqaror farqlanishga erishishga xizmat qildi.

7. Mijoz segmentlarining xulq-atvori va ehtiyojlaridagi dinamik

o'zgarishlarga tezkor moslashuvchi, ma'lumotlarga asoslangan va raqamli kanallarda faollikni ta'minlashga qaratilgan integral marketing strategiyalari yo'l xaritasining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi tijorat banklarida raqamli marketing samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Jumladan, raqamli kanallar orqali mijozlarni jalb qilish darajasi oshdi, xarajatlar qisqardi va bank daromadlarining barqaror o'sishi ta'minlandi.

8. Raqamli transformatsiya sharoitida bank marketingini ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimi sifatida shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar katta hajmdagi mijoz ma'lumotlaridan samarali foydalanish, prognoz tahlillari va personallashtirilgan qiymat takliflari yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa marketing qarorlarining subyektivligini kamaytirish va investitsiya qilingan marketing xarajatlarning qaytimini oshirishga xizmat qildi.

9. Tijorat banklarida marketing faoliyatini tashkil etuvchi bo'limlar tarkibini "Ijtimoiy yo'naltirilgan marketing modeli" asosida qayta shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy-metodologik takliflar CRM tizimlari, ko'p kanalli marketing, ma'lumotlar tahlili va munosabatlar marketingi dastaklarini integratsiya qilish orqali bank marketingini ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda rivojlantirish imkonini berdi.

10. Mazkur ijtimoiy yo'naltirilgan marketing modeli amaliyotga joriy etilishi natijasida bankning ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga moliyaviy resurslarni jalb qilish darajasi oshdi, mijozlar qoniqish darajasi yaxshilandi hamda moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish uchun institutsional asoslar shakllantirildi. Bu bank marketingining jamiyat manfaatlari bilan uyg'un rivojlanishini ta'minlashdagi rolini yanada kuchaytirdi.

11. Mijozlarga yo'naltirilgan marketing omillari ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida bank daromadlarining o'rta va uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish tijorat banklarida strategik rejalashtirish sifati va asoslanganlik darajasini oshirish imkonini berdi. Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish kredit portfelini boshqarish, komissiyaviy daromadlarni rejalashtirish hamda raqamli xizmatlar ulushini oshirish bo'yicha aniq maqsadlarni belgilashga xizmat qildi.

12. Umuman olganda, tadqiqot natijalari tijorat banklarida marketing faoliyatini mijoz qiymatiga asoslangan, ma'lumotlarga tayanuvchi, raqamli va ijtimoiy yo'naltirilgan integral boshqaruv tizimi sifatida shakllantirish orqali banklarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror

rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.1.23.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

БОБОХУЖАЕВА ФОТИМА КАХРАМОНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
КЛИЕНТООРИЕНТИРОВАННОЙ МАРКЕТИНГОВОЙ
СТРАТЕГИИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БАНКОВ**

08.00.11 - Маркетинг.

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2023.2.PhD/Iqt3067.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале "Ziynet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Эргашходжаева Шахноза Джасуровна
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Кориева Ёкутхон Каримовна
доктор экономических наук, профессор
Неъматов Иннатилла Убайдуллаевич
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент

Ведущая организация: Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится "___" _____ 2026 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.04 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz.

Ознакомиться с диссертацией можно в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под номером _____). Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75; факс: (99871) 239-28-75.

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2026 года.

(реестр протокола рассылки No___ от "___" _____ 2026 года).

Г.К. Абдурахманова
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

О.Дж. Джурабаев
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировая практика показывает, что занятие коммерческими банками стабильных конкурентных позиций на рынке напрямую зависит, прежде всего, от их способности к стратегическому управлению, формированию гибкой маркетинговой политики и эффективной организации взаимоотношений с клиентами. Структурные изменения, происходящие сегодня на рынке банковских услуг, формирование цифровой экономики, обострение конкурентной среды и стремительное развитие инновационных технологических решений еще больше повышают роль и значение клиентоориентированных маркетинговых стратегий.

Формирование цифровой экономики на мировом рынке банковских услуг и стремительное внедрение FINtech-технологий на рынок банковских услуг приводят к коренному пересмотру банковской практики и формированию адаптивных цифровых банковских услуг для клиентов. По данным Всемирного банка, к 2025 году каналы цифрового банкинга составили более 90 процентов всех банковских операций в глобальном масштабе, а в 2025 году в США цифровым банкингом воспользовались около 216,8 миллиона пользователей.¹⁸ Массовый переход розничных клиентов на онлайн-банковские услуги, доля пользователей которых за короткое время достигла 85 процентов, потребовал от банков внедрения совершенно новых подходов к управлению отношениями с клиентами.

В Узбекистане также проводятся масштабные реформы по либерализации банковской системы, развитию конкурентоспособных банковских услуг и повышению качества обслуживания клиентов. В Указе Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года No УП-5992 "О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020 - 2025 годы" определены задачи по "повышению эффективности банковской системы путем создания равных конкурентных условий на финансовом рынке, осуществления кредитования исключительно на рыночных условиях, снижения зависимости банков от государственных ресурсов, модернизации банковского обслуживания, создания эффективной инфраструктуры и автоматизации деятельности банков, а также поэтапной отмены

¹⁸ https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex/report?utm_source=chatgpt.com

несвойственных банкам функций"¹⁹. Эффективное выполнение этих задач неразрывно связано с обеспечением стабильной деятельности коммерческих банков, укреплением их ликвидности и позиций на рынке, а также с выявлением и сегментацией потребностей клиентов и разработкой маркетинговых стратегий, соответствующих целевым группам. В связи с этим, глубокое изучение потребностей клиентов на банковском рынке, оценка их ценности для банка, анализ клиентского опыта, определение конкретных целевых маркетинговых стратегий, полное удовлетворение нужд и стремлений клиентов, формирование с ними устойчивых отношений и разработка клиентоориентированных маркетинговых стратегий, служащих сохранению долгосрочной прибыльности, являются важным направлением исследований.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определённых в законах Республики Узбекистан No ЗРУ-582 от 11.11.2019 г. "О Центральном банке Республики Узбекистан," No ЗРУ-580 от 05.11.2019 г. "О банках и банковской деятельности," указах Президента Республики Узбекистан No УП-158 от 11.09.2023 г. "О стратегии "Узбекистан – 2030," No УП-109 от 12.08.2024 г. "О мерах по ускоренному развитию рынка факторинговых услуг," постановлениях Президента Республики Узбекистан No ПП-3270 от 12.09.2017 г. "О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы республики," No ПП-359 от 27.11.2025 г. "О финансовых технологиях в Узбекистане," постановлении правления Центрального банка Республики Узбекистан No 3030-10 от 14.07.2025 г. "О внесении дополнений и изменений в Положение о минимальных требованиях к деятельности коммерческих банков при осуществлении взаимоотношений с потребителями банковских услуг," зарегистрированном Министерством юстиции, и других нормативных документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики."

Степень изученности проблемы. Некоторые теоретические и практические аспекты научных исследований, направленных на использование маркетинговых стратегий взаимоотношений в повышении конкурентоспособности коммерческих банков, отражены в научных работах таких зарубежных ученых-экономистов, как

¹⁹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года No УП-60 "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы." <https://lex.uz/docs/4811025>

Ж.Ж.Ламбен, Ф.Котлер, М.Портер, Е.Дихтель, Е.П.Голубков, Махмуд, Ж.А.Самидай, Д.И.Баркан, А.В.Буздалин, Т.Амблер.²⁰

В странах Содружества Независимых Государств исследования в этом направлении проводили такие ученые, как Ю.М. Вайвер, С.А. Костериной, О.И. Лаврушина, А.М. Тавасиева, Ю.Н.²¹ В научных работах этих ученых даны научные рекомендации, направленные на формирование системы научно-теоретических взглядов на банковский маркетинг, повышение эффективности работы с клиентами в коммерческих банках и формирование конкурентных преимуществ на рынке цифровых банковских услуг.

Вопросы формирования клиентоориентированной маркетинговой стратегии, направленной на развитие рынка банковских услуг нашей республики, отражены в научных исследованиях Ш.Эргашходжаевой, М.С.Косимовой, М.Юсупова, У.У.Шарифходжаева, З.А.Хакимова, О.А.Ортикова, З.Б.Мустафоева, Д.Н.Аллаёровой, Б.М.Мирзамайдинова, Г.Бекмуродовой, Н.А.Карабаева, М.Б.Муминовой, М.М.Абдурахмановой и многих других ученых и специалистов.²²

²⁰ Ламбен Ж.Ж.. «Стратегический маркетинг» – СПб.: «Наука», 2006 г.; Ф.Котлер, Ф.Армстронг, Г.Сондерс, Д.Вонг. «Основы маркетинга» – СПб.: Вильямс, 2008 г.; Майкл Е. Портер. «Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов». Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс. 2005. – 454с.; Е.Дихтель, Хершген Х. «Практический маркетинг», учеб. пособие / пер. с нем. Макарова А.М.: под ред. Минко И.С. – М.: Высш. шк. 1995. –225с.; Голубков Е.П.. «Маркетинговые исследования: теория, методология и практика» – М.: Финпресс, 2008 г.; Mahmud, J.Al Samy dai, Ibrahim, Alnawas A.M. and Rodina A. Yousif, 2010. «The Impact of Marketing Innovation on Creating a Sustainable Competitive Advantage», The Case of Private Commercial Banks in Jordan. Asian Journal of Marketing, 4: 113-130.; Баркан Д.И.. «Маркетинг для всех: Беседы для начинающих». – J.L.: Редакционно-издательский центр «Культ-информ-пресс» совместно с социально-коммерческой фирмой «Человек», 1991. – 256с.; А.В.Буздалин. «Надежность банка: От формализации к оценке», 2012. – 192с.; Амблер Т. «Практический маркетинг» /Пер. с англ. под общей ред. Ю. Н. Каптуревского. – СПб: Издательство «Питер», 1999. – 400 с.;

²¹ Вайвер Ю.М. Проблемы стратегического управления системой взаимодействия с корпоративными клиентами в коммерческом банке / Ю.М. Вайвер // Вестник Академии. – 2014. – №3 (40). – С. 39-42.; Костерина, Т.М. Кредитный менеджмент в банке: учебно-методический комплекс / Т.М. Костерина. – М.: Евразийский открытый ин-т, 2012. – 270 с.; Банковское дело / коллектив авторов под ред. О.И. Лаврушина, Н.И. Валенцевой. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Банковское кредитование: учебник / А. М. Тавасиев, Т. Ю. Мазурина, В. П. Бычков. – 2-е изд. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – 366 с.;

